
Ko'p qavatli uyda yashovchi fuqarolarning murojaatlari ijobiy yechim topdi

"Navbahor" mahalla fuqarolar yig'ini Yangi asr ko'chasi 3-uyda yashovchi fuqarolar ko'p qavatli uylar oralig'idagi maydonni asfal't qilish masalasida Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarovga murojaat qilishgan edi. Shahar hokimi mazkur hududda bo'lib, fuqarolarni qiynab kelayotgan muammolarni o'rganib, ularga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar bergandi.

Fuqarolarning murojaatlari ijobiy hal etildi. Hududga kirish yo'lagi hamda bolalar maydonchasining oldi asfal't qilindi. 3-uyda yashovchi barcha fuqarolar olib borilayotgan amaliy ishlar hamda murojaatlarining ijobiy yechim topganligidan mamnun ekanliklarini ta'kidlashib, barcha mas'ullarga o'z minnatdorchiliklarini bildirdilar.

2023-03-30 13:23:57